

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB

Boshqaruvining

2025-yil “25” aprel dagi

542 - sonli qaroriga

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB

Kuzatuv kengashining

2025-yil “12” may dagi

16 - sonli qarori bilan

ILOVA

Yuridik departament

Metodologiya boshqarmasida

2025-yil “28” may da

141 - son bilan




“TASDIQLANGAN”

“RO‘YXATGA OLINGAN”

“Biznesni rivojlantirish banki” ATBning

Axborot siyosati to‘g‘risida Nizom

(Yangi tahrirda)



“Biznesni rivojlantirish banki” ATBning
Axborot siyosati to‘g‘risida Nizom
(Yangi tahrirda)

I. Umumiy qoidalar

1. “Biznesni rivojlantirish banki” ATBning Axborot siyosati to‘g‘risida Nizom” (keyingi o‘rinlarda – “Axborot siyosati”) “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”, “Qimmatbaho qog‘ozlar to‘g‘risida”, “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida” Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 2-iyuldagi “Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 176-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi Bosh direktorining 2012-yil 24-iyuldagi 2012-13-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Qimmatli qog‘ozlar bozorida axborot taqdim etish va e‘lon qilish qoidalar (Adliya vazirligi tomonidan 31.07.2012-y. 2383-son bilan ro‘yxatga olingan), bank Ustavi va ichki qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Axborot siyosati “Biznesni rivojlantirish banki” ATB (keyingi o‘rinlarda – “bank”) tomonidan axborot oshkor qilinishining asosiy maqsadlari, tamoyillari, shakllari, usullari, tartibi va muddatlarini belgilaydi.

3. Axborot siyosatida ko‘rsatilgan axborotni oshkor etishga qo‘yiladigan talablar bankning muhim axboroti (bank, tijorat va xizmat sirlari)ning maxfiyligini buzmasligi va bankni moliya tizimidagi boshqa raqobatchilariga nisbatan nomaqbul vaziyatga qo‘ymasligi lozim.

4. Axborot siyosati davlat sirlarini tashkil etadigan ma‘lumotlar bilan muloqot qilishga doir munosabatlarni tartibga solmaydi.

5. Axborot siyosatining asosiy qismi bo‘lib quyidagi vazifalarning ijrosi bilan ta‘minlanadigan axborot xavfsizligi hisoblanadi:

biznes-jarayonlarning yuqori sifatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida bankning informatsion aktivlarining yaxlitligini va bankning informatsion aktivlaridan uzluksiz foydalanishini ta‘minlash;


axborot texnologiyalari bilan ishlashda axborot maxfiyligini ta‘minlash.

6. Axborot siyosatida quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

manfaatdor shaxslar – qonunchilik me‘yorlari, tuzilgan shartnomalar (kontraktlar) orqali yoki bilvosita bank faoliyatiga ta‘sir ko‘rsatadigan yoki ta‘sirni o‘zida sezadigan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, jismoniy yoki yuridik shaxslar guruhlar. Ushbu tushuncha bank bilan tanish bo‘lgan yoki u to‘g‘risida fikrini bildiradiganlarga taalluqli emas. Manfaatdor shaxslarning asosiy vakillari bo‘lib aksiyadorlar, xodimlar, omonatchilar va boshqa mijozlar, yetkazib beruvchilar, davlat va nazorat organlari, shu‘ba va boshqa affilangan xo‘jalik subyektlari, kreditorlar, investorlar, jamoat tashkilotlari, bank faoliyati amalga oshiriladigan hududlardagi aholi hisoblanadi;

mansabdor shaxs – bankning Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi a‘zolari;

maxfiy axborot – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq oshkor qilinishi cheklangan, davlat sirlari toifasiga kirmaydigan, biroq uchinchi shaxslarga noma‘lumligi



tufayli haqiqiy yoki potensial tijorat qimmatiga ega bo'lgan (shu jumladan, xizmat zaruriyati tufayli tarqatilishi cheklangan axborot), hujjatlashtirilgan axborot bo'lib, undan chegaralangan shaxslar qonuniy asosda foydalanish huquqiga ega va bank ularning maxfiyligini himoya qilish uchun choralar ko'radi;

izoh(lar) berish – ommaviy axborot vositalari vakillarining og'zaki va yozma so'rovlariga javob berish;

axborotni oshkor qilish – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari, bank Ustavi, ichki qoidalarida ko'zda tutilgan tartibda, usullarda va shakllarda barcha manfaatdor shaxslar tomonidan axborotdan foydalanish imkoniyatini ta'minlash;

ommaviy axborot vositalari – davriy bosma nashrlar, televideniye, radio, hujjatli kino, audiovizual yozuv va ommaviy axborotni davriy va uzluksiz tarqatishning boshqa shakllari, shu jumladan, internet-resurslar.

II. Axborot siyosati maqsadlari

7. Bank quyidagi maqsadlarda axborotni oshkor qiladi:

manfaatdor shaxslarning bank va uning faoliyati to'g'risidagi haqqoniy axborot borasidagi ehtiyojlarini qondirish orqali bank faoliyatining ochiqqligi va shaffofligini ta'minlash;

bankning tegishli korporativ boshqarish standartlariga amal qilishga tayyorligini tasdiqlash;

bankning ijobiy imijini shakllantirish va qo'llab-quvvatlash.

8. Axborot siyosati investitsion va boshqarish qarorlarini qabul qilish uchun ahamiyatli bo'lgan bank va uning faoliyati to'g'risida haqqoniy axborot olishga manfaatdor shaxslarning huquqlarini to'liq amalga oshirish, shuningdek bankning maxfiy axborotini himoya qilishga qaratilgan.

9. Axborotni tijorat siri qatoriga kiritish va undan foydalanish shartlari O'zbekiston Respublikasining "Tijorat siri to'g'risida" Qonuni, bankning ichki qoidalari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi.

10. Axborotni bank siri qatoriga kiritish va undan foydalanish shartlari O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida" Qonuni va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi.

III. Axborot siyosatining asosiy tamoyillari

11. Axborot siyosatining asosiy tamoyillari bo'lib axborot resurslarining haqqoniyligi, to'liqligi, shaffofligi, tegishliligi, bog'langanligi, muntazamligi, tezkorligi, hujjatlar bilan mustahkamlanganligi, ochiqqligi, obyektivligi, ketma-ketligi, teng huquqliligi, mutanosibligi, himoyalanganligi hisoblanadi:

haqqoniylik tamoyili barcha aksiyadorlarga va boshqa manfaatdor shaxslarga bankka ma'lum bo'lgan axborotni faktlarni buzmaganda taqdim etilishini anglatadi;

to'liqlik tamoyili shuni anglatadiki, bank barcha aksiyadorlarga va boshqa manfaatdor shaxslarga haqiqatga mos keladigan ma'lumotlarni, faktlarni yashirmasdan, o'zi to'g'risidagi salbiy ma'lumotlarni ochib berishdan bo'yin egmaganda, aksiyador(lar) va boshqa

manfaatdor shaxslarga ishning haqiqiy holati to'g'risida eng to'liq tasavvurni shakllantirishga imkon beradigan hajmda taqdim etadi (maxfiy axborot bundan mustasno);

shaffoflik tamoyili aksiyadorlar va boshqa manfaatdor shaxslarga bankning faoliyati to'g'risidagi to'liq va haqqoniy axborotning oshkor qilinishini ko'zda tutadi;

tegishlilik tamoyili bank tomonidan oshkor qilinayotgan axborot bank faoliyatiga taalluqliligini anglatadi;

bog'langanlik tamoyili bank tomonidan oshkor qilinayotgan axborot undan foydalanish va xronologik tartibda tahlil qilish mumkin bo'lishi uchun bir xil yondashuvlar va tamoyillarni qo'llagan holda tuzilganligini anglatadi;

muntazamlik tamoyili qonunchilik talablari va bankning ichki qoidalariga muvofiq aksiyadorlar va boshqa manfaatdor shaxslarga doimiy va tizimli tarzda axborot oshkor qilinishini ko'zda tutadi;

tezkorlik tamoyili aksiyador(lar) va boshqa manfaatdor shaxslarni maksimal qisqa muddatlarda bankning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan, shuningdek ularning manfaatlariga taalluqli bo'lgan ahamiyatli voqealar va faktlar to'g'risida xabardor qilinishini ta'minlashga qaratilgan;

hujjatlar bilan mustahkamlanganlik tamoyili bank tomonidan oshkor qilinayotgan ma'lumot hujjatlar va real hodisalarga asoslanganligini anglatadi;

ochiqlik tamoyili deganda bank manfaatdor shaxslarga o'z faoliyati to'g'risidagi axborotdan erkin, qiyinchilik tug'dirmaydigan, baravar va eng kam xarajat talab etadigan uslubda foydalanish imkoniyatini ta'minlaydigan kanallar va tarqatish usullarini qo'llashi tushuniladi;

obyektivlik tamoyili bank o'z faoliyatini yoritayotganida o'z faoliyati to'g'risidagi aksiyadorlar va boshqa manfaatdor shaxslar uchun ahamiyatli bo'lgan salbiy axborotni oshkor etishdan bo'yin tovlamasligini anglatadi;

ketma-ketlik tamoyili bank tomonidan oshkor etilayotgan axborot xuddi shunday yoki o'zaro bog'langan masalalar bo'yicha avval oshkor etilgan axborotning mantiqiy davomi bo'lishi ekanligini anglatadi;

teng huquqlilik tamoyili bank barcha aksiyadorlar va boshqa manfaatdor shaxslarga o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni olishda va undan foydalanishda teng huquqlar va imkoniyatlarni ta'minlashini anglatadi, bank ichki qoidalarida ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno;

mutanosiblik tamoyili aksiyadorlar va boshqa manfaatdor shaxslarning axborotni olishdagi huquqlarini maksimal darajada amalga oshirish maqsadida, biroq shu bilan birga bankning manfaatlariga qat'iy rioya qilgan holda, bir tomondan bankning axborotni oshkor qilishda ochiqligi va shaffofligi, ikkinchi tomondan esa bankning tijorat manfaatlari va axborotning maxfiyligini ta'minlanishi, shuningdek O'zbekiston Respublikasining bank siri to'g'risidagi qonunchiligi talablarini bajarilishi o'rtasidagi oqilona balansni ko'zda tutadi.

Bunda quyidagilar majburiy shartlar hisoblanadi:

maxfiy axborotni himoya qilish;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va bankning ichki qoidalarida belgilangan insayderlik axborotini tarqatish va undan foydalanish qoidalariga rioya qilish;

himoyalanganlik tamoyili axborotni oshkor qilish va (yoki) uni uzatish tartibini buzish natijasida yuzaga keladigan moddiy yoki moddiy bo'lmagan zararni oldini olish maqsadida bank, tijorat yoki boshqa sirni tashkil etadigan yoki maxfiy hisoblanadigan axborotni himoya qilishda qonunchilik tomonidan ruxsat etilgan usullari va vositalarini qo'llashni ko'zda tutadi.

IV. Axborot siyosatini amalga oshirish tartibi

12. Axborot siyosatini amalga oshirish uchun bank:

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, bank Ustavi, bankning ichki qoidalari talablariga muvofiq oshkor qilinishi majburiy bo'lgan ma'lumotlar (axborot)ning hisobini yuritadi;

axborotni oshkor etish tartibini belgilaydi;

oshkor etilishi (uzatilishi, chetga chiqib ketishi) bank manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan bankning maxfiy axborotini tashkil etuvchi ma'lumotlar ro'yxatini belgilaydi va rioya qilinishi maxfiy axborotning saqlanishini ta'minlashga yordam beradigan zarur choralarni belgilaydi;

axborotni tarqatish usullari, shakllari va tartibini belgilash, shuningdek oshkor qilinadigan axborotlarni tayyorlash va tarqatish uchun mas'ul shaxslarni aniqlash orqali bank to'g'risidagi axborotning tarqatilishi ustidan nazorat qilish tizimini o'rnatadi.

13. Bank boshqaruvi organlari, mansabdor shaxslari va xodimlarining bank to'g'risidagi ma'lumotlarning lozim darajada oshkor etilishi va maxfiy axborotlarning saqlanishini ta'minlash uchun vakolatlari va javobgarligini belgilaydi.

Axborot siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni ta'minlash maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali uzatiladigan axborotni bank ichida ham, undan tashqarida ham nazorat qilishni ta'minlaydigan yagona axborot makonini shakllantiradi.

14. Bankning investitsion jozibadorligini oshirish uchun bank qo'shimcha ma'lumot, tushuntirishlar va rasmiy izohlar berish orqali o'z ishini bank faoliyatining joriy holati to'g'risidagi ma'lumotlarga, bank faoliyatini moliyaviy tahlil qilish, asosli investitsiya qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarga asoslanib, puxta o'ylangan investitsion qarorlarni qabul qilish orqali aksiyadorlar va boshqa manfaatdor shaxslar bilan doimiy ravishda bevosita muloqotni davom ettirishga intiladi.

15. Aksiyadorlar va boshqa manfaatdor shaxslar uchun ma'lum axborotlar, shu jumladan Axborot siyosatida ko'rsatilgan axborotlar va bankning xohishiga ko'ra taqdim etiladigan boshqa qo'shimcha axborotlar bankning internetdagi korporativ veb-saytida davlat, rus va ingliz tillarida joylashtiriladi.

16. Bankning Axborot siyosatini amalga oshirish uchun bankning mansabdor shaxslari bankka o'zlari va ularning affillangan shaxslari to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek, bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablarini bajarilishi uchun zarur bo'lgan boshqa axborot, ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etishlari shart. Taqdim etilgan ma'lumotlar o'zgargan taqdirda, mansabdor shaxslar ushbu o'zgarishlar to'g'risida darhol bankning ichki qoidasida belgilangan tartib va muddatlarda xabardor qilishlari shart.

V. Axborotni oshkor etish usullari va shakllari

17. Axborotni oshkor qilish shakllari bank tomonidan shunday qilib tanlab olinadiki, barcha manfaatdor shaxslarning oshkor qilinayotgan axborotdan erkin va oqilona xarajatlar qilgan holda foydalanishi ta'minlanadi.

18. Bank va uning faoliyati to'g'risidagi axborot quyidagi usullar va shakllarda oshkor qilinishi mumkin:

- ommaviy axborot vositalarida nashr qilish;
- bankning korporativ veb-saytida joylashtirish;
- davriy bosma nashrlarda joylashtirish;
- axborotni broshyuralar va bukletlarda nashr qilish;
- aksiyadorlar va boshqa manfaatdor shaxslar bilan intervyular, matbuot anjumanlari va uchrashuvlar hamda boshqa ommaviy tadbirlar o'tkazish;

- bankka investorlarning, tahlilchilarning, ommaviy axborot vositalari vakillarining tashrif buyurishini tashkil etish;

- aksiyadorlar va boshqa manfaatdor shaxslarga ulardan kelib tushgan tegishli va qonuniy so'rovlariga asosan axborot (hujjatlar)dan foydalanish imkoniyatini taqdim etish va ularning nusxalarini tarqatish;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan boshqa usullar va shakllar.

19. Bank aksiyadorlari va boshqa manfaatdor shaxslar bilan muloqot qilishning quyidagi usullaridan ham foydalanishi mumkin:

- ommaviy va individual uchrashuvlar, bank vakillarining shaxsiy ishtirokida yoki distansion kanallardan foydalangan holda;

- xalqaro va mahalliy moliyaviy-investitsion anjumanlar;

- taqdimotlar, saytlar;

- audio, video anjuman-qo'ng'iroqlar;

- elektron pochtaga kelgan so'rovlarga muntazam qo'ng'iroqlar (javoblar).

20. Bank manfaatdor shaxslarga quyidagilardan foydalanishga imkoniyat yaratadigan tarzda o'zining korporativ veb-saytini qo'llashi lozim:

- ommaviy bayonotlar;


- O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari va bankning ichki qoidalariga muvofiq talab etiladigan bankning asosiy axboroti;

- bankning prezentatsiyalari (agar qo'llash mumkin bo'lsa);

- korporativ boshqarish bo'yicha hujjatlarga, shu jumladan bankning Kuzatuv kengashiga taalluqli hujjatlar.

VI. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq majburiy ravishda oshkor etilishi shart bo'lgan axborotlar ro'yxati, ularni oshkor etish muddatlari va tartibi

21. Bank majburiy ravishda oshkor qilinishi kerak bo'lgan axborotni O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida", "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida" qonunlari, O'zbekiston Respublikasi



Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 2-iyuldagi "Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 176-sonli va 2021-yil 15-iyundagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 373-sonli qarorlari, Qimmatli qog'ozlar bozorida axborot taqdim etish va e'lon qilish qoidalariga (Adliya vazirligida 2012-yil 31-iyulda 2383-son bilan ro'yxatga olingan) va boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan hajmda, muddatlarda va usullarda oshkor etadi.

22. Axborotni majburiy ravishda oshkor etish quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

korporativ axborotning yagona portaliga (qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining rasmiy veb-sayti);

Respublika fond birjasining rasmiy veb-sayti (www.uzse.uz);

bankning korporativ veb-sayti (www.brb.uz);

ommaviy axborot vositalari.

23. Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi va fond birjasining rasmiy veb-saytlarida, bankning korporativ veb-saytida majburiy ravishda oshkor qilinishi lozim bo'lgan axborotni o'z ichiga olgan hujjatlar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

qimmatli qog'ozlar emissiyasi prospekti (qimmatli qog'ozlar ommaviy joylashtirilgan holatda);

bankning qonunchilik talablariga mos keladigan formatda tayyorlangan va, shu jumladan, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq auditdan o'tkazilgan yillik moliyaviy hisobotni o'z ichiga olgan yillik hisoboti;

bankning birinchi chorak, birinchi yarim yillik va hisobot yilining to'qqiz oyi bo'yicha hisoboti;

bank faoliyatidagi ahamiyatli fakt to'g'risidagi xabar.

Bank yuqorida ko'rsatib o'tilgan axborotni Qimmatli qog'ozlar bozorida axborot taqdim etish va e'lon qilish qoidalariga (Adliya vazirligida 2012-yil 31-iyulda 2383-son bilan ro'yxatga olingan) muvofiq bo'lgan muddatlar, tartib va shaklda oshkor qiladi.

24. Bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlanadigan ichki qoida korporativ axborotning yagona portalida (qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytida) majburiy ravishda oshkor qilinishi lozim bo'lgan axborot ro'yxatini, muddatini va bankning axborotni oshkor qilish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linmalarini ham belgilaydi. Bunda, ushbu ichki qoida bankning barcha tarkibiy bo'linmalari va xodimlari, shu jumladan bankning Kuzatuv kengashiga bevosita bo'ysunadigan bo'linmalar tomonidan ijro etilishi shart.

25. Fond birjasining kotirovka qiluvchi birja varag'iga qimmatli qog'ozlar kiritilganida va (yoki) u yerda qimmatli qog'ozlar mavjud bo'lgan holatda, bank listing talablarga muvofiq barcha axborotni oshkor etadi. Fond birjasida listing mavjud bo'lmagan taqdirda, bank oshkor etilayotgan ma'lumotlar ro'yxati va ularni o'zining korporativ veb-saytida oshkor etish qismida listing talablarning maksimal darajada mumkin bo'lgan ijrosini amalga oshirishga harakat qiladi.

26. Bank o'zining korporativ veb-saytida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 2-iyuldagi "Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 176-sonli qarori bilan ro'yxati belgilangan axborotning oshkor qilinishini ta'minlaydi.

27. Quyidagi axborotlar ommaviy axborot vositalarida majburiy ravishda oshkor etilishi shart:

bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabar;

bankning joylashgan joyi (pochta manzili) va elektron pochtasining o'zgarganligi to'g'risidagi xabarnoma;

imtiyozli huquqqa ega bo'lgan bank aksiyadorlariga aksiyalarni yoki aksiyalarga konvertatsiya bo'ladigan emission qimmatli qog'ozlarni sotib olishni taklif etish;

bank tomonidan aksiyalarni qaytarib sotib olish to'g'risida axborot;

bankning tugatilishi, shuningdek uning kreditorlari tomonidan qo'yilgan talablarni da'vo qilish tartibi va muddatlari to'g'risida axborot.

VII. Korporativ veb-saytda oshkor qilinadigan qo'shimcha axborotning ro'yxati va tartibi

28. Bankning korporativ veb-saytidagi ma'lumotlar tizimlashtirilgan va mavzularga qarab alohida bo'limlarda joylashtirgan holda navigatsiya qilish uchun qulay bo'lishi, barcha manfaatdor tomonlar uchun ochiq bo'lishi lozim. Korporativ veb-saytni yangilash zarurat tug'ilgan vaqtda, biroq haftasiga kamida bir marta amalga oshiriladi.

29. Bankda muntazam ravishda korporativ veb-saytda joylashtirilgan axborotning to'liqligi va dolzarbligini, shuningdek, korporativ veb-saytning o'zbek, rus, ingliz tilidagi tahrirlardagi axborotning mos kelishi nazorat qilinishi lozim. Bunda korporativ veb-saytning ingliz va rus tilidagi versiyalarini yaratish, ma'lumot bilan to'ldirish va qo'llab-quvvatlash bankning faoliyatiga lozim bo'lmagan yuklamani qo'yishga olib kelmasligi lozim. Bankda korporativ veb-saytidagi axborotning to'liqligi va dolzarbligiga javob beradigan mas'ul shaxslar (tarkibiy bo'linma) biriktirilgan bo'lishi lozim.

30. Bankning korporativ veb-saytida kamida quyidagi qo'shimcha axborotlar joylashtirilgan bo'lishi lozim:

bank to'g'risidagi umumiy axborot, shu jumladan bankning missiyasi, asosiy vazifalari, maqsadlari va faoliyatining ustuvor yo'nalishlari, tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv tuzilmasi, Kuzatuv kengashining tarkibi va Kuzatuv kengashining qo'mitalari, Boshqaruv tarkibi, xodimlar soni, bankning moliyaviy va operatsion natijalari to'g'risidagi axborot;

rivojlanish strategiyasi (kamida, strategik maqsadlar, shu jumladan bank tomonidan amalga oshirilayotgan davlat siyosatining alohida maqsadlari) va uni amalga oshirish to'g'risidagi axborot;

faoliyatining asosiy moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan ko'rsatkichlarini oshkor qilish orqali maqsadlarni ijro etish natijalari, bank qanday yo'l bilan bir-biriga zid kelishi mumkin bo'lgan maqsadlar o'rtasida murosani topishi to'g'risidagi axborot;

boshqaruv organlari, Kuzatuv kengashining qo'mitalari, ichki audit xizmati va korporativ maslahatchi xizmati faoliyatini tartibga soladigan Ustav va ichki hujjatlar;

Axborot siyosati (axborotni oshkor etish siyosati);

etik tamoyillar to'g'risidagi axborot;

xatarlarni boshqarish to'g'risidagi axborot; shu jumladan xatarlarning har qanday kutilayotgan jiddiy omillari va ana shunday xatarlarni boshqarish uchun ko'rilgan choralar to'g'risidagi axborot;

auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirish tartibini va auditorlik tashkilotlari bilan o'zaro munosabatlarni tartibga soladigan hujjatlar;

dividend siyosati;

Kuzatuv kengashi a'zolari to'g'risidagi axborot, shu jumladan quyidagi ma'lumotlar: fotosurat (Kuzatuv kengashi a'zosi bilan kelishgan holda), familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, fuqaroligi, Kuzatuv kengashi a'zosining maqomi (mustaqil a'zo, aksiyador vakili), Kuzatuv kengashi a'zosining funksiyalarini ko'rsatish, shu jumladan Kuzatuv kengashi qo'mitalaridagi a'zolik yoki Kuzatuv kengashi raisi funksiyalarini ijro etish, ma'lumoti, shu jumladan asosiy va qo'shimcha ma'lumoti (ta'lim muassasasining nomi, bitirgan yili, malakasi, olgan darajasi), so'nggi besh yildagi ish tajribasi, asosiy ish joyi va hozirgi vaqtda egallab turgan boshqa lavozimlar, shu jumladan boshqa tijorat va notijorat tashkilotlarning Kuzatuv kengashlarida a'zolik, kasbiy malakasi, Kuzatuv kengashiga ilk bor saylangan sanasi va amaldagi Kuzatuv kengashiga saylangan sanasi, bank aksiyalarining yo'qligi holati yoki ana shu bank aksiyalarining egalik qilayotgan soni va ulushi;

Boshqaruv a'zolari to'g'risidagi axborot, shu jumladan: fotosurat, familiya, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, fuqaroligi, lavozimi va ijro etadigan funksiyalari, ma'lumoti, shu jumladan asosiy va qo'shimcha ma'lumoti (ta'lim muassasasining nomi, bitirgan yili, malakasi, olgan darajasi), so'nggi besh yili ichidagi ish tajribasi, kasbiy malakasi, o'rindoshlik bo'yicha egallab turgan lavozimlari, bank aksiyalarining yo'qligi holati yoki ana shu bank aksiyalarining egalik qilayotgan soni va ulushi;

qonunchilik va yillik hisobotlar mazmunini tartibga soladigan bankning ichki hujjatlari talablariga muvofiq shaklda tayyorlangan bankning yillik hisobotlari;

eng yaxshi xalqaro amaliyot inobatga olingan holda va yillik hisobotlarning mazmunini tartibga soladigan bankning ichki hujjatlari talablariga muvofiq tayyorlangan va Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan bankning yillik hisobotlari. Bank to'g'risidagi axborotni qidirishni yengillashtirish maqsadida ahamiyatli bo'lgan axborot ham bankning yillik hisobotida, ham korporativ veb-saytda oshkor qilinishi lozim;

auditorlik tashkiloti to'g'risidagi axborot, shu jumladan auditorlik tashkilotiga to'lanadigan mukofot puli, shu bilan birga auditorlik xizmatlari uchun alohida va moliyaviy hisobotning auditorlik tekshiruvi bilan bog'liq bo'lmagan xizmatlar uchun to'lanadigan mukofot puli to'g'risidagi axborot va boshqa ma'lumotlar;

Xalqaro audit standartlariga muvofiq o'tkazilgan auditorlik tekshiruvi to'g'risida auditorlik xulosalari va moliyaviy hisobot xalqaro standartlariga muvofiq tayyorlangan tegishli moliyaviy hisoboti, o'tgan davrlar uchun;

tasdiqlangan dividendlar miqdori to'g'risidagi axborot;

sotib olish faoliyati to'g'risidagi axborot, shu jumladan sotib olishlar qoidalari, rejasi, ularni e'lon qilish va sotib olishlarning natijalari;

boshqaruv, mulk va ovoz berish tuzilmasi to'g'risidagi axborot, shu jumladan davlatga tegishli aksiyalarning egasi kimligi va davlatga tegishli aksiyalarga nisbatan aksiyador huquqlarini kim tomonidan amalga oshirilishi to'g'risidagi axborot, aksiyadorlar tarkibi va ovoz huquqining taqsimlanishi, ularga tegishli bo'lgan oddiy aksiyalarning soni va ulushi to'g'risidagi axborot;

aktivlar tuzilmasi to'g'risidagi axborot, shu jumladan barcha pog'onadagi shu'ba va qaram xo'jalik jamiyatlari bilan tashkiliy va korporativ aloqalarning aniq identifikatsiyasi va ana shu jamiyatlarning faoliyat sohasining qisqacha ta'rifi;

yirik bitimlar va (yoki) manfaatli bo'lgan bitimlar, shuningdek davlat va affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar to'g'risidagi axborot, shu jumladan ana shu bitimlarning bozor qiymati va maqsadga muvofiqligini baholash uchun zarur bo'lgan axborot. Bunday axborot bitim tomonlari to'g'risidagi ma'lumotlarni, bitimning ahamiyatli shartlari (bitim predmeti, bitim narxi) hamda maxfiy rejimini buzmaganda bitimni ma'qullash to'g'risidagi qarorni qabul qilgan organ to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi;

barqaror rivojlanish sohasidagi faoliyat to'g'risidagi axborot, shu jumladan bank faoliyatining moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan ko'rsatkichlariga jiddiy ta'sir ko'rsatishi, rahbariyat va xodimlar o'rtasidagi munosabatlarga, mijozlarga, kreditorlar, yetkazib beruvchilar va bank o'z xizmatlarini ko'rsatayotgan tumanlar aholisi kabi boshqa manfaatdor shaxslar bilan bo'lgan munosabatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xodimlar va boshqa manfaatdor shaxslarga taalluqli bo'lgan asosiy masalalar to'g'risida axborot. Oshkor qilinayotgan axborot ijtimoiy sohada, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida, inson huquqlari va korrupsiya bilan kurashish sohasida choralar ko'rish to'g'risidagi har qanday ahamiyatli axborot ham o'z ichiga qamrab oladi;

xayriya (sponsorlik) yoki beg'araz yordam ko'rsatish haqida qarorlarni qabul qilish, bunday yordamni ko'rsatish (olish) tartibi, shartlari to'g'risidagi axborot, shuningdek haqiqatda ko'rsatilgan (olingan) xayriya (sponsorlik) yoki beg'araz yordam to'g'risidagi axborot;

korporativ hodisalarning yillik kalendari;

aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorlari (maxfiylik rejimini buzmaganda holda sharti bilan);

Kuzatuv kengashining faoliyati to'g'risidagi axborot, shu jumladan Kuzatuv kengashi yig'ilishlari soni, Kuzatuv kengashi a'zolarining yig'ilishlarda ishtirok etishi to'g'risidagi ma'lumotlar, yig'ilishlarning kun tartibi, ko'rib chiqilgan masalalar va ovoz berish natijalariga ko'ra qabul qilingan qarorlar to'g'risidagi ma'lumotlar (maxfiylik rejimini buzmaganda holda);

Kuzatuv kengashi qo'mitalarining faoliyati to'g'risidagi axborot, shu jumladan qo'mitalar va ularning tarkibi, yig'ilishlar soni, Kuzatuv kengashi a'zolarining yig'ilishlarda ishtirok etishi to'g'risidagi ma'lumotlar, yig'ilishlarning kun tartibi, ko'rib chiqilgan masalalar va ovoz berish natijalariga ko'ra qabul qilingan qarorlar to'g'risidagi ma'lumotlar (maxfiylik rejimini buzmaganda holda);

har qanday moliyaviy yordam to'g'risidagi axborot, shu jumladan davlatdan olingan kafolatlar, o'zaro majburiyatlar, davlat va bank o'rtasidagi moliyaviy yordam ko'rsatish hamda xatarlarni taqsimlash mexanizmlari to'g'risidagi axborot;

yangiliklar va press-relizlar;

qonunchilik va (yoki) bankning ichki qoidalari buzilishlarini, shu jumladan firibgarlik, korrupsiya, kamsitish, axloqsiz xulq-atvor va bankning faoliyatiga tegishli boshqa buzilishlarini o'z vaqtida aniqlash va oldini olish maqsadida murojaatlar qilish uchun tezkor aloqa kanallari (kontaktlar) to'g'risidagi axborot;

bog'lanish uchun ma'lumot, aksiyadorlardan kelib tushadigan yozma yoki elektron so'rovlar uchun manzillar.

31. Bank tomonidan korporativ veb-saytda yoki eng yaxshi xalqaro amaliyotni hisobga olingan holda tayyorlangan yillik hisobotda oshkor qilinadigan qo'shimcha ma'lumot:

bank tomonidan davlat siyosatining alohida maqsadlari va islohotlari, davlat organlarining topshiriqlari amalga oshirilgan taqdirda, bank bunday maqsadlarga erishganlik, tegishli faoliyat bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar va ularni moliyalashtirish manbalari to'g'risida hisobot beradi. Bunday axborotni oshkor qilinishi bank faoliyatida noloyiq bo'lgan yuklamaga olib kelmasligi lozim;

Kuzatuv kengashi a'zolarini tanlanishi va tegishli ko'nikmalar majmuasini ta'minlash, Kuzatuv kengashi a'zolarining mustaqilligini aniqlash mezonlarida umumiy yondashuv;

Kuzatuv kengashi va Boshqaruv a'zolarini mukofotlash, shu jumladan mukofotlarning va ular asosida bo'lgan siyosatlarining haqiqiy darajasi. Kuzatuv kengashi va Boshqaruv a'zolarini mukofotlash borasidagi axborotni oshkor etilishida bunday axborotni individual tartibda oshkor qilish maqbul amaliyot hisoblanadi. Axborot shartnomani bekor qilish va ishdan bo'shatish to'g'risidagi me'yorlarni, shuningdek Kuzatuv kengashi va Boshqaruv a'zolariga taqdim etiladigan pullik shaklda bo'lmagan har qanday maxsus imtiyozlar yoki kompensatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga qamrab olishi lozim;

korporativ boshqarish tizimini baholash natijalari.

32. Bank o'zi to'g'risidagi axborotni qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa manbalarda ham oshkor qilinishini ta'minlaydi.

VIII. Bankning Kuzatuv kengashi qarorlari to'g'risidagi axborotni oshkor etish

33. Bank aksiyadorlar va boshqa manfaatdor shaxslarning e'tiboriga bank Kuzatuv kengashi tomonidan ro'yxatga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va bank Ustavi hamda Axborot siyosatida nazarda tutilgan hajmda, shaklda va usullarda qabul qilingan qarorlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yetkazadi.

34. Bank aksiyadorlari va boshqa manfaatdor shaxslarning e'tiboriga axborotni yetkazish tartibi va muddatlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan ichki hujjatlarga muvofiq belgilanadi.

35. Agar bank Kuzatuv kengashi qaroriga ko'ra masala maxfiy bo'lsa, bankning tijorat manfaatlarini himoya qilish maqsadida, qabul qilingan qaror to'g'risidagi ma'lumot e'lon qilinmaydi.

36. Agar bank Kuzatuv kengashi qaroriga ko'ra masalada maxfiy ma'lumotlar mavjud bo'lsa, ushbu qaror to'g'risidagi ma'lumotlar maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilmagan holda cheklangan tarzda e'lon qilinadi.

IX. Axborotni oshkor etish huquqi

37. Ma'lumotlarni oshkor etish va bank nomidan izohlar berish huquqiga Axborot siyosati va bankning ichki qoidalarida belgilangan tartibda o'z vakolatlari doirasida bankning vakolatli xodimlari ega.

38. Bank Kuzatuv kengashi raisi davlat, bank, xizmat, tijorat yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va bank tomonidan himoya qilinadigan boshqa sirlarning xavfsizligini ta'minlash talablarining bajarilishini hisobga olgan holda Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan qarorlarga rasman izoh berish, shuningdek Kuzatuv kengashi yig'ilishlarida ko'rib chiqilgan masalalar bo'yicha Kuzatuv kengashining nuqtai nazarini bildirish huquqiga ega.

39. Bank Boshqaruvi raisi bank faoliyatiga tegishli masalalar bo'yicha ochiq bayonot berish (ma'lumot berish), bankning ichki hujjatlarida belgilangan tartibda bank nomidan ma'lumot berish vakolatini bank xodimlariga yuklash huquqiga ega.


40. Bankning rahbar xodimlari, tarkibiy bo'linmalar rahbarlari Boshqaruv raisi bilan kelishilgan va tashqi aloqalar uchun mas'ul tarkibiy bo'linmani dastlab ogohlantirgan holda o'zlari nazorat qiladigan faoliyat sohalari, tarkibiy bo'linmalari bo'yicha joriy faoliyat masalalari yuzasidan bank nomidan ommaviy chiqishlar qilish huquqiga ega.

X. Bankning boshqaruv organlari, mansabdor shaxslari, xodimlari bilan aksiyadorlar va boshqa manfaatdor shaxslar o'rtasida axborot almashish tartibi

41. Boshqaruv organlari a'zolari, mansabdor shaxslar, bank xodimlari bilan aksiyadorlar va manfaatdor shaxslar o'rtasida ma'lumot almashish uchun bank mas'ul tarkibiy bo'linmani (va (yoki) alohida xodimni) belgilashi mumkin va bunday ma'lumot almashinuvlar ushbu mas'ul tarkibiy bo'linma orqali amalga oshiriladi.

42. Bank aksiyador(lar)ining talabiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 104-moddasi va bank Ustaviga muvofiq unga (ularga) bank hujjatlaridan foydalanish imkonini ta'minlashi shart. Bank qonunchilik hujjatlari va bankning ichki qoidalariga muvofiq, aksiyador murojaat qilgan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kuni ichida talab qilingan ma'lumotlarni (so'ralgan hujjatlar nusxalarini) taqdim etishi shart.

43. Aksiyadorlar va boshqa manfaatdor shaxslarning Axborot siyosatida nazarda tutilgan ma'lumotlarni taqdim etish to'g'risida yozma (elektron) so'roviga ko'ra, bankning tegishli tarkibiy bo'linmasi (uning faoliyati yo'nalishi bo'yicha) bir hafta ichida barcha zarur ma'lumotlarni elektron shaklda taqdim etadi, agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida boshqacha muddat belgilanmagan bo'lsa.



44. Hujjatlarning nusxalarini taqdim etish uchun bank tomonidan olinadigan to'lov bank tomonidan belgilanadi va hujjatlar nusxalarini tayyorlash va hujjatlarni pochta orqali jo'natish bilan bog'liq xarajatlar qiymatidan oshib ketmasligi lozim.

45. Bank aksiyadorlari, mansabdor shaxslari, xodimlari va boshqa manfaatdor shaxslar (qonunchilikka muvofiq bank to'g'risida ma'lumot olgan shaxslar) bank, xizmat, tijorat yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan himoya qilinadigan boshqa sirni tashkil etuvchi bank yoki uning faoliyati to'g'risidagi axborotni oshkor qilishga haqli emas.

XI. Maxfiy axborotning himoyasi

46. Bankning mansabdor shaxslari va xodimlari maxfiy ma'lumotlarning saqlanishi bo'yicha barcha talablarga rioya etishiga, saqlanishi buzish ehtimoli uchun javobgar bo'lish, shu jumladan maxfiy ma'lumotlarni ruxsatsiz oshkor etish va (yoki) ular bilan tanishish, ularni buzish yoki yo'q qilish, shuningdek ularni uchinchi shaxslarga uzatishga qaratilgan tasodifan yoki qasddan harakatlarni oldini olishga majbur hisoblanadi.

47. Bank qonunchilik hujjatlari va bankning ichki qoidalariga talablariga muvofiq maxfiy ma'lumotlarning himoyalanihini ta'minlaydi. Bunday ma'lumotlarga egalik qilish shartlari, shuningdek uni olish imkoniyati bankning ochiqqligi va uning manfaatlariga zarar yetkazmaslik intilishi o'rtasidagi muvozanatni saqlash zarurligini hisobga olgan holda bank tomonidan belgilanadi.

48. Quyidagilar maxfiy axborot hisoblanmaydi:

umumiy holda ma'lum bo'lgan ma'lumotlar asosida tayyorlangan axborot;

ommaviy axborot vositalaridan olingan axborot;

manbasi noma'lum bo'lgan, keng shaxslar doirasida tarqatilayotgan tasdiqlanmagan axborot, shuningdek bankning joriy yoki rejalashtirilayotgan faoliyati to'g'risidagi taxminlar.

49. Maxfiy ma'lumotlarga ega bo'lgan shaxslar ro'yxati bankning xavfsizlik masalalari uchun mas'ul tuzilmasi (xavfsizligini xizmati) tomonidan tuziladi va bankning ichki hujjatida belgilangan tartibda yangilanadi.

50. Oshkor etiladigan va maxfiy ma'lumotlarning ro'yxati, ma'lumotlarni oshkor etish muddatlari va tartibi va maxfiy ma'lumotlarning saqlanishini ta'minlash shartlari va tartibi bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan ichki hujjat bilan belgilanadi.


51. Maxfiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatlarni rasmiylashtirish, hisobga olish, ko'paytirish, saqlash tartibi bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan ichki hujjatlar bilan tartibga solinadi.

52. Boshqa yuridik shaxslar bilan muloqotda yoki tegishli bitim va shartnomalarda maxfiy ma'lumotlardan foydalanilganda, bank maxfiy ma'lumotlarni oshkor etmaslik to'g'risidagi bandlarni ko'zda tutadi.

53. Bank mansabdor shaxslari va xodimlari maxfiy axborotdan faqat bank manfaatlarida hamda Axborot siyosati va bankning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq foydalanishga majburdirlar. Bank kontragentlari o'zlariga ma'lum bo'lgan maxfiy axborotdan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, boshqa me'yoriy hujjatlari va bank bilan imzolangan kelishuvlarga muvofiq foydalanishga majburdirlar.

54. Bank Boshqaruv a'zolari va xodimlari qonunchilik hujjatlari va bankning ichki qoidalariga muvofiq axborotni oshkor etish va himoya qilishning belgilangan tartibiga rioya qilish majburiyatini imzolaydilar.

55. Bank mansabdor shaxslari, xodimlari va kontragentlari tomonidan maxfiy axborotdan foydalanish tartibini ta'minlash maqsadida bank maxfiy axborotdan noqonuniy



foydalanishdan himoya qilishga qaratilgan maxsus tartib-taomillarini joriy etishga haqli. Ushbu tartiblar quyidagilar uchun joriy etiladi:

maxfiy axborotdan foydalanish tartibiga rioya etilishini ta'minlash, shu jumladan maxfiy axborotni noqonuniy qo'lga kiritishni bartaraf etish va bank mansabdor shaxslari va xodimlari hamda uchinchi shaxslar tomonidan undan bank manfaatlari doirasidan chetga chiqqan holda foydalanmaslik;

aksiyadorlar, investorlar, hamkorlar va boshqa manfaatdor shaxslarning bankka bo'lgan ishonch darajasini oshirish.

XII. Axborot siyosatiga rioya etish nazoratini ta'minlash choralari

56. Axborot siyosatida ko'zda tutilgan axborotning va ommaviy axborot vositalarida bank haqidagi ma'lumotlarning oshkor etilishi uchun mas'ul bo'lib bankning ommaviy axborot vositalari bilan aloqa qilish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linmasi (Axborot xizmati) hisoblanadi. Bankning tegishli tarkibiy bo'linmalari rahbarlari (o'z yo'nalishi bo'yicha) ma'lumotlarning o'z vaqtida, to'liq va ishonchli taqdim etilishi, o'z vazifalarini kerakli ma'lumotlarni oshkor qilish nuqtai nazaridan va bank axborot xizmati bilan hamkorlikda to'g'ri bajarilishi uchun javobgar hisoblanadi.

57. Bank Boshqaruvi Axborot siyosatiga muvofiq ma'lumotlarning to'liqligi, aniqligi va o'z vaqtida oshkor etilishi uchun javobgar.

58. Bank Kuzatuv kengashi har yili bank Boshqaruvining bank faoliyati natijalari to'g'risidagi yillik hisoboti doirasida Axborot siyosati talablariga rioya etilishi jarayoni to'g'risida bank Boshqaruvining hisobotini eshitadi.

XIII. Yakuniy qoidalar

59. Axborot siyosati bankning barcha faoliyat turlari uchun amal qilib, bankning barcha tarkibiy bo'linmalari, mansabdor shaxslari, xodimlari va boshqa manfaatdor shaxslarga nisbatan qo'llash uchun majburiy hisoblanadi.

60. Bank xodimlari ushbu siyosat bo'yicha ish yuritayotganda korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka, jumladan:


korrupsion harakatlarni to'liq taqiqlashi va har qanday moddiy shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita) berishi va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etadi;

amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan bankning korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki hujjatlari talablariga amal qiladi;

huquqbuzarlik, jinoyat yoki manfaatlar to'qnashuvi alomatlari borligi to'g'risida aniq faktlar yoki dalillar aniqlangan taqdirda, bu haqida o'rnatilgan tartibda bank rahbariyatiga xabar beradi.

61. Bank Boshqaruvi Axborot siyosatiga muvofiq oshkor etiladigan axborotning tashkil etilishi, holati va to'g'riligi uchun javobgar hisoblanadi.

62. Bank Kuzatuv kengashi qaroriga ko'ra, axborotni o'z vaqtida, sifatli, ishonchli va to'liq oshkor etilishi bank Boshqaruvi faoliyatining samaradorligini baholashning asosiy mezonlaridan biri va unga mukofot (bonuslar) to'lash sharti bo'lishi mumkin.



63. Ma'lumotlarni oshkor etish jarayonida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, bank Ustavi, Axborot siyosati va bankning ichki hujjatlari buzilganligi va bankka zarar yetkazilishiga olib kelgan taqdirda, aybdor shaxslar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin.

64. Axborot siyosati bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, bank Ustavi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarorlari, bank Kuzatuv kengashi qarorlari va belgilangan tartibda qabul qilingan bankning ichki qoidalari bilan tartibga solinadi.


65. Agar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi yoki bank Ustavining o'zgarishi natijasida Axborot siyosatining ayrim bandlari ularga zid kelsa, Axborot siyosati O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va bank Ustaviga zid bo'lmagan qismida qo'llaniladi. O'z kuchini yo'qotgan bandlarga nisbatan va ushbu bandlar bilan tartibga solinadigan masalalar bo'yicha Axborot siyosatiga tegishli o'zgartirishlar kiritilgunga qadar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va (yoki) bank Ustavining normalariga amal qilinishi lozim.

66. Axborot siyosati bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan kunning ertasidan kuchga kiradi.

Axborot siyosati kuchga kirgan kundan boshlab bank Kuzatuv kengashining 2021-yil 16-avgustdagi 13-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Qishloq qurilish bank" ATB Axborot siyosati to'g'risida nizom (yangi tahrirda) (ro'yxat raqami: 226) o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanadi.

Kiritildi:

Axborot xizmati rahbari



Sh. Oripov

Kelishildi:

Komplaens nazorati departamenti
direktori



J. Yusupov

Risk menejment departamenti
direktori



K. Karimov

Lingvist



H. Jumayev

Yuridik departament Metodologiya
boshqarmasi boshlig'i



S. Raxmatullayev

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Axborot xizmati
Ichki me’yoriy hujjat loyihasining lingvistik ekspertiza
xulosasi

2025-yil, 11-mart

Toshkent shahri

259 -son

1. Ichki me’yoriy hujjat - **Nizom**
loyihasining turi:

2. Ichki me’yoriy hujjat - **Axborot xizmati to’g’risida**
loyihasining nomi:


3. Lingvistik ekspertizani - **H. Jumayev**
o’tkazuvchi:

4. Lingvistik ekspertiza - **2025-yil 11-mart**
o’tkazilgan sana:

5. Loyiha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-oktabrdagi 662-son qarori bilan tasdiqlangan “Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o’tkazish tartibi to’g’risida”gi Nizom talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Loyiha matni qisqa va lo’nda, ta’riflar aniq, imlo, uslubiy, grammatik va orfografiya qoidalariga mos, shuningdek, soha atamalari to’g’ri qo’llanilgan.

Ekspert:


(imzo)

H. Jumayev

2025 - yil 18 - mart

Toshkent sh.


YURIDIK XULOSA № 111

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Axborot xizmati tomonidan ishlab chiqilgan **“Biznesni rivojlantirish banki” ATBning Axborot siyosati to‘g‘risida Nizom” (yangi tahrirda)** loyihasi Yuridik departament Metodologiya boshqarmasi tomonidan huquqiy ekspertizadan o‘tkazildi.

Mazkur ichki qoida Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 5-aprelda 916-son bilan ro‘yxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me‘yoriy hujjatlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom (Nizomning 3-bo‘limi “Tijorat banklarining ichki me‘yoriy hujjatlarini ishlab chiqish, tasdiqlash, unga o‘zgartirish kiritish va bekor qilish”) talablariga muvofiq holda ishlab chiqilgan bo‘lib, amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqdir.

Shuningdek, hujjat loyihasi O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq ekspertizadan o‘tkazilib, unda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratadigan, korrupsiyaga sabab bo‘ladigan omillar aniqlanmadi.

Yuridik departament Metodologiya
boshqarmasi boshlig‘i



S.Raxmatullayev